

ZAMONAVIY TEXNOLOGIK TARAQQIYOT INSON BILIM VA KO'NIKMLARINING MAHSULI

Radjabov Odilbek Babanazarovich, Urganch innovatsion universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar va pedagogika fakulteti "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasi dotsent v.b., (PhD)

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ РАЗВИТИЯ — ПРОДУКТ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ЗНАНИЙ И НАВЫКОВ

Раджапов Одилбек Бабаназарович, доцент кафедры "Социально-гуманитарные науки" факультета социально-гуманитарных наук и педагогики Ургенчского инновационного университета, (PhD)

MODERN TECHNOLOGICAL DEVELOPMENT IS THE PRODUCT OF HUMAN KNOWLEDGE AND SKILLS

Radjabov Odilbek Babanazarovich, Associate Professor, Department of Social and Humanities, Faculty of Social and Humanities and Pedagogy, Urganch Innovative University, (PhD)

Annotasiya: Zamonaviy texnologik taraqqiyot inson faoliyatining barcha sohalarida, jamiyat hayotini rivojlantirishdagi dolzarb ahamiyati ilmiy-texnik jarayon natijalari bilan belgilanadi. Maqolada, shuningdek, "Intellektual madaniyat jamiyatning tegishli intellektual sohasi taraqqiyoti, shuningdek, konkret shaxsning aqliy va analitik qobiliyatlariga bog'liq ekanligi aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: tafakkur, texnologiya, taraqqiyot, jamiyat, innovatsion, analitik, dunyoqarash, global, paradigma, intellektual.

Abstract: This article describes the urgent importance of modern technological progress in all spheres of human activity, in the development of social life, determined by the results of the scientific and technical process. It is also noted that intellectual culture depends on the development of the relevant intellectual sphere of society, as well as on the mental and analytical abilities of a particular person.

Key words: thinking, technology, development, society, innovative, analytical, worldview, global, paradigm, intellectual.

Аннотация: Современный технический прогресс во всех сферах человеческой деятельности, актуальное значение которого в развитии общества определяется результатами научно-технического процесса. В статье также было отмечено, что интеллектуальная культура зависит от развития соответствующей интеллектуальной сферы общества, а также от умственных и аналитических способностей конкретного человека.

Ключевые слова: мышление, технология, развитие, общество, инновационное, аналитическое, мировоззренческое, глобальное, парадигмальное, интеллектуальное.



<https://orcid.org/0009-0006-2851-1429>

e-mail:
odilbek19890823@gmail.com

KIRISH. Inson o‘z atrofidagi olamda bo‘lgan buyumlar va hodisalarni ongli ravishda idrok qiladi, ongli ravishda eslab qoladi hamda esga tushiradi va ongli ravishda harakat qiladi. Sun‘iy intellekt – informatikaning alohida sohasi bo‘lib, odatda inson ongi bilan bog‘liq bo‘lgan tilni tushunish, o‘rgatish, muhokama qilish, masalani yechish, tarjima va shu kabi imkoniyatlarga ega kompyuter tizimlarini yaratish bilan shug‘ullanadi. Hozirda sun‘iy intellekt turli amallarni bajarishga mo‘ljallangan algoritm hamda dasturiy tizimlardan iborat va u inson ongi bajarishi mumkin bo‘lgan bir qancha vazifalarning uddasidan chiqqa oladi. Ilmiy bilish jarayonida tafakkurning rivojlanib borishi inson ongida yuksak aqliy faollikni yuzaga keltiribgina qolmay uning natijasi o‘laroq fanda aqlni lol qoldiradigan darajada kashfiyotlarning yaratilishiga zamin yaratmoqda. Ilmiy tafakkur rivoji va texnologiyalar taraqqiyoti insonlarga jahon ilm-fanidan va madaniyatidan xabardor bo‘lishi uchun ham xizmat qiladi. Bunday islohotlarni keng miqyosda amalga oshirishda yirik tashkilotlar bilan bir qatorda ommaviy axborot vositalari (gazeta, jurnal, radio, televideniye va kompyuterlar) faoliyati ham o‘z ta‘siriga ega. Umuman olganda, informatsion texnologiya va axborotlarni uzatishning rivojlanishi natijasida jamiyatda madaniy-ma‘rifiy taraqqiyot yangi bosqichga ko‘tarilishi, insonning ziyolilik faoliyatining yanada kengayishi va noan‘anaviy rivojlanish tamoyilining o‘shishiga sabab bo‘ldi deyish mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Xalqi ma‘rifatli, jahon ilm-fani va madaniyatidan xabardor mamlakatning ravnaqiga ravnaq qo‘shilaveradi. Shu bois keyingi yillarda mamlakatimiz rahbariyati ham joylarda ilm-fanni, birinchi galda, universal oliy ta‘limni rivojlantirish uchun barcha chora-tadbirlarni ko‘ra boshladi. Bu maqsadlar bilan ilmiy-texnikaviy ta‘lim sohasida hamkorlik tobora chuqurlashib bordi. Shubhasiz, bu tadbirlar mazkur tizimda keskin burilish yasash, kelajakda mamlakatni yuksak malakali bilimdon mutaxassislar bilan ta‘minlash imkonini beradi. Shu boisdan ham U.Sh.Xadjiyev “O‘zbekistonda har yili ijtimoiy munosabatlarda faol qatnashishga tayyor,

o‘z mustaqil hayot yo‘lini boshlayotgan, yarim milliondan ziyod yoshlar maktabni bitiradi. 450 mingdan ziyod oliy va o‘rta maxsus bilimli yoshlar turli sohalarda o‘zini, bilimi va ko‘nikmalarini ko‘rsatishga tayyor. Innovatsion o‘zgarishlar, ilmiy kashfiyotlarni joriy etish yangi ish joylari yaratishga olib kelmaydi, balki ishchi o‘rinlarini tejaydi. Mazkur ziddiyatni ilmiy-texnik yangiliklar bilan hal etish qiyin. Inson faoliyatining barcha sohalarini, qo‘l mehnatini avtomatlashtirib, innovatsion kashfiyotlar bilan almashtirib bo‘lmaydi. Demak, jamiyatda qo‘l mehnatiga bo‘lgan ehtiyoj saqlanib qoladi”[1] deb ta‘kidlaydi.

Zamonaviy bilimga asoslangan ijtimoiy-falsafiy tadqiqot obyekti sifatida “ilm-fan va texnologik taraqqiyot” ham alohida qayd etiladi. Shu bilan birga, ilm-fan va texnologik taraqqiyotning barcha ustuvor yo‘nalishlari har qanday jamiyat rivojlanishining asosiga aylanib bormoqda. Zamonaviy sharoitda, ilm-fan va texnologik taraqqiyot yutuqlarini hisobga olgan holda, jamiyat hayotini rivojlantirishning ilmiy asoslangan istiqbolli strategiyasini ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega. Ilmiy-texnik jarayon, rivojlanish salohiyati va ishlab chiqarish samaradorligi, avvalo, ilmiy-texnik taraqqiyot, uning sur‘ati va ijtimoiy-iqtisodiy natijalari bilan belgilanadi. Shuningdek, “Intellektual madaniyat jamiyatning tegishli intellektual sohasi taraqqiyoti, shuningdek, konkret shaxsning aqliy va analitik qobiliyatlariga bog‘liq bo‘ladi”[2].

TAHLIL VA NATIJALAR. Zamonamizning ilg‘or mutafakkirlari biz yashayotgan davrni (XX asr oxiri – XXI asr boshlarini) bir ovozdan shu kungacha hukmron mavqeni egallab kelgan ilmiy-materialistik dunyoqarash global inqirozi aniq namoyon bo‘lgan va sivilizatsiya yalpi inqirozini o‘z orqasidan ergashtirgan davr deb baholamoqdalar. Ushbu vaziyatdan chiqishning asosiy vositasi sifatida esa, zudlik bilan yangi va barkamol dunyoqarash paradigmasini ishlab chiqish va yaroqsiz eski paradigmani u bilan almashtirishdan iborat deb bilmogdalar.

Zero, shu choqqacha fan oldida qanday inqiroz ko‘ndalang bo‘lgan bo‘lmasin, u hamisha yangi

paradigma bilan almashtirish orqali bartaraf etib kelingan edi. Masalan, mexanik tafakkurga asoslangan klassik fan inqirozga uchraganida nomexanistik paradigma shakllanib, noklassik fan taraqqiyoti boshlangan edi. Keyinchalik (XX asrning 70-yillaridan boshlab) noklassik chiziqli tafakkurga asoslangan fan paradigmasi o'rniga noxiziqli tafakkurga asoslangan postnoklassik fan (sinergetika) paradigmasi shakllandi. Ammo endilikda (XX asrning 90-yillaridan buyon)[3] tobora jadallashib borayotgan yalpi umumiy inqirozni va atrof-olamdagi salbiy o'zgarishlarni bartaraf etish uchun noxiziqli postnoklassik fan paradigmasining ham yaroqsizligi va endilikda nafaqat ilmiy tafakkur paradigmasini, balki borliqni tafakkurdan yuksakroq (irratsional-intuitivistik) bilishga asoslangan yangi dunyoqarash paradigmasi bilan almashtirish zarurligini uqtirayotgan ovozlar ko'proq eshitilmoqda va tobora kuchaymoqda[4]. Ushbu ovozlar fanning borliqni yaxlit (bir butunlikda), aniqrog'i xolistik bilish va his etishga qobil emasligi masalasini oldinga surmoqda. Ayni shu ma'noda, ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirishning birlamchi manbalari bo'lgan fan va texnikaning so'nggi yutuqlaridan qanchalik maqsadli va samarali foydalanilsa, jamiyat hayotining ustuvor vazifalari (ishlab chiqarish jarayoniga nisbatan) shuncha muvaffaqiyatli hal etiladi. Ilmiy-texnika taraqqiyoti tom ma'noda fan va texnika taraqqiyotining uzluksiz bog'liq jarayonini anglatadi; keng mazmunli ma'noda, bu ilm-fan yordamida yangi va takomillashtirilgan amaliy texnologiyalar, ishlab chiqarish vositalari va yakuniy mahsulotlarni yaratishning doimiy jarayonini ifodalaydi. Biroq, bugungi kunda Z.Qodirova aytganidek, "Intellektual va ma'naviy omillarni o'z ichiga olgan inson hayotining mazmuni va maqsadini anglash zarurligini yuzaga keltirmoqda. Biroq, fandagi amalga oshirilgan kashfiyotlarning barchasi insonparvarlikka xizmat qilgan deb bo'lmaydi. Chunki atom bombasining yaratilishi insoniyat uchun misli ko'rilmagan muammolarni keltirib chiqardi. Demak, fandagi amalga oshirilgan kashfiyotlar dialektik tabiatga ega"[5].

Ilmiy-texnik taraqqiyotning bir qator bosqichlarini o'z ichiga olgan yangi ilmiy-texnik

bilimlarni to'plash va amalda tatbiq etish jarayoni, "fan - texnika - ishlab chiqarish" integral siklik tizimi sifatida talqin qilish mumkin: fundamental nazariy tadqiqotlar; amaliy tadqiqot ishlari; eksperimental dizaynni ishlab chiqish; texnik yangiliklarni o'zlashtirish; yangi texnologiya ishlab chiqarishni talab qilinadigan hajmgacha oshirish, uni ma'lum vaqt davomida qo'llash (ishlash); mahsulotlarning texnik, iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy qarishi, ularni yangi, yanada samarali dizaynlar bilan tobora ko'paytirib borish va boshqalar shular jumlasidandir. Shu boisdan ham "Hayotimizning, - dedi Sh.M.Mirziyoyev, - eng muhim jabhalari uchun yuksak texnologiyalar, ilmiy ishlanmalar yaratish, malakali mutaxassislar tayyorlash, jahon axborot-texnologiya bozorida munosib o'rin egallash masalasiga ustuvor ahamiyatga ega vazifa sifatida qarashimiz zarur"[6].

XULOSA. Ilmiy va texnologik taraqqiyot texnologik usullar va yakuniy mahsulotlarni ishlab chiqarish vositalarini takomillashtirishning evolyutsion (miqdoriy o'zgarishlarning to'planishi bilan bog'liq) va inqilobiy (keskin sifat o'zgarishlari tufayli) shakllari bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, ilmiy-texnik taraqqiyotning evolyutsion shakllariga mahsulotlarning individual texnik va ekspluatatsion parametrlarini takomillashtirish yoki ularni ishlab chiqarish texnologiyasi, bir xil texnika avlodi doirasida mashinalar, uskunalar, moslamalar va materiallarning yangi modellarini modernizatsiya qilish yoki yaratish kiradi. Ilmiy-texnika inqilobi mehnatning vositalari va obyektlari, texnologiyalari, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish, odamlarning mehnat faoliyati tabiatini o'zgartirishga inqilobiy ta'sir ko'rsatadigan so'nggi ilmiy kashfiyotlar va ixtirolarga asoslangan holda ijtimoiy rivojlanishning tubdan sifatli o'zgarishini aks ettiradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Хаджиев У.Ш. Ёшларнинг тафаккурини шакллантиришда шарқона маънавий-ахлоқий императивларнинг ўрни. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2020. –Б.16.

2. Сиддиқов И.Б. Ёшлар интеллектуал маданиятини ривожлантиришнинг ижтимоий-фалсафий жиҳатлари. // Фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Тошкент.: 2020. –Б.13.
3. Батафсилроқ қаранг: Шаҳноза Қаҳҳорова. Глобал маънавият – глобаллашувнинг ғоявий асоси. Т.: Тафаккур, 2009. - Б. 395 -410.
4. Толкачев П.С. О духовных причинах всемирного экологического кризиса // Сознание и физическая реальность. 1999. Т.4. – Б. 2, 4; Акимов А.Е. Физика признает сверхразум // Чудеса и приключения. 1996. №5. – Б. 24 -27; С.Гроф. Холотропное сознание. (Прорыв к новым измерениям сознания). Онлайн Библиотека. <http://www.koob.ru>; Сатпрем. Шри Ауробиндо или путешествие сознания. – Л. Изд-во ЛГУ, 1989. – Б.334.; Джан Р.Г., Данн Б.Дж. Границы реальности. Роль сознания в физическом мире. М.: Объединенный институт высоких температур. 1995. –Б.288; ва б.
5. Кадирова З. Илмий-ижодий фаолиятнинг фалсафий методологик таҳлили: Фалс. фан. ном. дис... – Тошкент, 2012. – Б.13.
6. Мирзиёев Ш.М. Демократик ислохотларни изчил давом эттириш халқимиз учун тинч ва осойишта, муносиб ҳаёт даражасини яратиш барқарор таракқиёт қафолатидир // “Халқ сўзи”, 2016 йил 2 ноябрь.

